

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH MASALALARI

Sultonov Mansur G‘aniyevich
Jizzax politexnika instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasida assistenti
Spanov Meirkham

M. Auvezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha sohaga keng joriy etish masalalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Harakatlar strategiyasi, Raqamli O‘zbekiston-2030, texnologik va biznes jarayonlari, yalpi ichki mahsulot.

Annotation: this article provides information on the issues of development of the digital economy in Uzbekistan, wide introduction to all spheres.

Keywords: Uzbekistan, Action Strategy, Digital Uzbekistan-2030, technological and business processes, gross domestic product.

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga albatta raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoniga asosan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi¹. Shu asosida “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng birinchi, puxta va mukammal

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.

tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari hamda tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2 trillion AQSh dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyoda peshqadam bo'lgan Buyuk Britaniyada esa u hozirning o'zida milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetdi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020-yilning o'zida transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarni to'liq raqamlashtirish belgilangan va bu boradagi ishlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Shu jumladan, zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar ishga tushirilgani aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini ta'minlovchi "business.gov.uz" portalining ishga tushirilgani, vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yaratilgan yagona elektron tizimi "project.gov.uz" joriy etilgani raqamli iqtisodiyot rivoji yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, raqamli iqtisodiyotni joriy etishda telekommunikatsiya infrastrukturasi va internet aloqalari ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog'iga chiqish imkoniyati yaratildi hamda tarmoqning yuklanish

darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. 2020-yilning 1-yanvaridan operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 56,0 ming so'mni tashkil etmoqda. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etmoqda. Respublikamiz bo'yicha 237 ta obyektida magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o'tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Zero, raqamli iqtisodiyot aqlbovar qilmas darajada katta hajmda raqamli ma'lumotlarni to'plashda davom etmoqda. 2022-yilda global IP trafik hajmi 150 700 Gbit/s (solishtirish uchun 2017-yil 45 000 Gbit/s) chiqishi kutilayotgani davrdan ortda qolmaslikka chaqiradi².

Ma'lumki, elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning muhim bir elementi hisoblanadi. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlanishini shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin: 2015 yilgacha bo'lgan hamda undan keyingi davr.

2015-yilgacha mamlakatimizda normativ-huquqiy baza ishlab chiqish va tayyorlash bo'yicha bir qancha faol ishlar olib borildi. 2015-yildan esa O'zbekiston Respublikasida 2015-2018 yillarda mo'ljallangan elektron tijoratni rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi, va u o'rta muddatli istiqbolda elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, raqobatli muhitni kengaytirishni, zamonaviy infratuzilmani tashkil qilishni hamda qo'shimcha ish o'rinlari yaratishni, shuningdek, elektron tijorat haqidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish shakllarini va yo'llarini belgilab berdi.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasida olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini to'xtatib turgan bir qator muammolar hamda kamchiliklarni aytib o'tishimiz mumkin:

1. Aholining elektron bitimlar tuzishga unchalik ishonmasligi;

²R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva "Raqamli iqtisodiyot asoslari". Darslik. Toshkent Moliya Instituti. 2020-yil 437-bet.

2. Yetkazib berish qiymatining yuqoriligi;
3. Tovar va xizmatlar sifatining pastligi;
4. Firibgarliklardan qo‘rqish;
5. Kompyuter savodxonligi darajasining pastligi.

Lekin, shu bilan bir vaqtda aholi o‘rtasida o‘tkazilgan boshqa ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston aholisi elektron bitimlar amalga oshirishga nisbatan tayyor, biroq ularni amalga oshirish vaqtida elektron tijoratning rivojlanishini sekinlashtiradigan bir qator muammolar mavjuddir.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va keng joriy qilish bilan bog‘liq muammolardan yana asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakatning «raqamli suvereniteti»ga tahdid;
- davlatning raqamli iqtisodiyotning transchegaraviy rolini qayta ko‘rib chiqish;
- xususiy hayotga daxl qilinishi, fuqarolarni potensial kuzatish imkoniyati;
- ma’lumotlar xavfsizlik darajasining pasayishi;
- past va o‘rta malakali ish o‘rinlari sonining kamayishi;
- biznes-modellar va o‘zaro aloqa sxemalari murakkablik darajasining ortishi;
- iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatning keskin kuchayishi;
- ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar xulq-atvor modellaridagi o‘zgarishlar;
- ma’muriy va soliq kodekslarini qayta ko‘rib chiqish zaruratidir.

Raqamlashuv va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon tarzda keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birgalikda, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida, O‘zbekistonda ham barcha sanoat tarmoqlarini faol ravishda raqamlashtirish jarayonlari tizimli davom ettirilmoqda. 2020 -yilga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Axborot

texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 22 millionga, shu jumladan, mobil internet foydalanuvchilari 20 million nafarga yetgan³

Raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali bevosita ilm-ma'rifatni rivojlantirish imkoniyatlari ortadi. Bugungi tezkor zamonda jahon bo'ylab globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyot ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida juda keng joriy etilmoqda. Ayrim mamlakatlar ushbu sohaning eng yuqori cho'qqisi hisoblangan sun'iy intellektdan faol foydalanishga o'tgan. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham berish va korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.⁴

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish masalasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu o'z o'rnida raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususan korxonalarni transformatsiya qilish vazifasini dolzarbligini yana bir bora tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son farmoni.

2. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva "Raqamli iqtisodiyot asoslari". Darslik. Toshkent Moliya Instituti. 2020-yil 437-bet.

3. Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги. (2020). Телекоммуникация тузилмаси.

<https://mitc.uz/uz/pages/communication>

³ Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги. (2020). Телекоммуникация тузилмаси. <https://mitc.uz/uz/pages/communication>

⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=787>